

AESTHETIC-PHILOSOPHICAL ESSENCE OF UZBEKISTAN FOLK INSTRUMENTS

Mamatqulov Oybek Abdulhamidovich

Teacher of the Faculty of Art History, Gulistan State University

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek xalq cholg'ularining tarixiy shakllanish jarayoni, ularning estetik-falsafiy mohiyati hamda milliy musiqa tafakkuridagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Unda xalq cholg'ularining ijtimoiy-madaniy hayotdagi funksional vazifalari, ularning inson ruhiyati, ma'naviy dunyosi va estetik didini shakllantirishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, o'zbek xalq cholg'ularining rekonstruksiya jarayonlari, ularning zamonaviy ijrochilik va musiqa ta'limidagi o'rni, milliy qadriyat sifatidagi madaniy ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada xalq cholg'ulari milliy madaniyatning badiiy timsoli va estetik tafakkur arxetipi sifatida talqin etiladi.

Annotation: This article provides a scholarly analysis of the historical development of Uzbek folk musical instruments, their aesthetic and philosophical essence, and their role in the formation of national musical thinking. It examines the functional significance of folk instruments in social and cultural life, their influence on human spirituality, moral worldview, and aesthetic perception. The article also explores the reconstruction processes of Uzbek folk instruments, their position in modern performance and music education, and their cultural importance as national values. Ultimately, folk instruments are interpreted as artistic symbols and archetypes of Uzbek aesthetic consciousness and musical culture.

Kalit so'zlar ; O'zbek xalq cholg'ulari, musiqa madaniyati, estetik tafakkur, falsafiy mohiyat, madaniy arxetip, milliy meros, ritmik tizim, ijrochilik san'ati, rekonstruksiya, Shashmaqom, dutor, g'ijjak, doira, pedagogik ahamiyat, madaniy qadriyat.

Keywords : Uzbek folk instruments, musical culture, aesthetic thinking, philosophical essence, cultural archetype, national heritage, rhythmic system, performance art, reconstruction, Shashmaqom, dutor, gijjak, doira, pedagogical significance, cultural value.

Musiqa insonning estetik tafakkurini shakllantiruvchi, ruhiy olamini yuksaltiruvchi va go'zallikni idrok etish qobiliyatini o'stiruvchi qudratli vositadir. U nafaqat estetik zavq manbai, balki inson va jamiyatning ma'naviy uyg'unligini ta'minlovchi ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqiy cholg'ular esa inson tafakkuri va ijodiy salohiyatining timsoli bo'lib, ular xalqning ijtimoiy-madaniy hayotini, ruhiy kechinmalarini va tarixiy xotirasini ifodalaydi. O'zbek xalqining boy musiqiy merosida cholg'ular alohida o'rin egallaydi. Ular xalq ruhiyatining ovoqli ifodasi, madaniy arxetipi va milliy o'zlikning timsolidir. Tarixiy manbalarga ko'ra, O'zbekiston hududidan o'tgan Buyuk Ipak yo'li Sharq va G'arb musiqiy madaniyatlarining o'zaro ta'sirini ta'minlagan, bu esa o'z navbatida xalq cholg'ularining shakllanishi va takomillashuviga katta turtki bo'lgan.

Tarixdan ma'lumki, o'z davrida O'zbekiston hududidan G'arb va Sharq mamlakatlarini birlashtirib turuvchi Buyuk Ipak Yo'li o'tganligi, bu esa zaminimizga boshqa xalqlar madaniyatining kirib kelishi va bizning madaniyatimizni boshqa xalqlar madaniyatiga yoyilishiga sababchi bo'lgan. Bu esa o'z - o'zidan barcha sohalar yuksalishiga, hususan musiqa madaniyati ham boshqa sohalar singari rivojlanishi va yurtimiz hududida ko'plab cholg'ularning saqlanib qolishiga zamin yaratib bergan.

O‘zbek xalq cholg‘ulari o‘ziga xos tarzda musiqaning barcha tarmoqlariga mos shaklda asrlar osha mukammallashib, rivojlanib keldi. Bugungi kunda o‘zbek musiqasi uch asosiy yo‘nalishga bo‘linadi: xalq musiqasi, xalq mumtoz musiqasi va kompozitorlik musiqasi.

Xalq musiqasi og‘zaki ijod an‘analariga tayangan bo‘lib, unda kuy, ovoz va texnik imkoniyatlarga ega cholg‘ular asosiy o‘rinni egallaydi. Ular orasida rubob, nay, g‘ijjak, chang va doira kabi asboblar alohida ahamiyat kasb etadi. Xalq musiqasi ijrosining sharoiti va joyi o‘ziga xos bo‘lgani sababli bu cholg‘ular turli muhitga tez moslasha olish xususiyatiga ega. O‘zbek xalqining klassik musiqa merosi esa turli cholg‘ular tizimida boy tajribaga ega bo‘lib, ularning har biri uzoq tarixiy rivojlanish, shakllanish va texnik takomillashuv jarayonini bosib o‘tgan. Ijro mezonlariga ko‘ra, xalq cholg‘ulari an‘anaviy va qayta ishlangan zamonaviy turlarga ajratiladi. Har bir cholg‘u o‘ziga xos tovush tembriga, ifoda imkoniyatiga va estetik jozibaga ega. Rubob, g‘ijjak, dutor, nay, chang, qonun, ud, surnay, qo‘shnay, doira kabi asboblar o‘zbek musiqasining milliy ruhini aks ettiradi. Ular xalq hayoti, marosimlari va badiiy tafakkurining ajralmas qismiga aylangan. Ayniqsa, doira va zarbli cholg‘ular qadimdan xalq bayramlari va ommaviy tadbirlarning faol ishtirokchisi bo‘lib kelgan. An‘anaviy cholg‘ular ansambllari o‘ziga xos tovush boyligi va ohangdorlik kengligi bilan ajralib turadi. Ular musiqiy ijrochilikda yakkanavoz va jamoaviy ijroni uyg‘unlashtirib, milliy musiqaning badiiy darajasini oshirgan.

O‘zbek xalq cholg‘ulari — bu milliy o‘zlik va musiqiy tafakkurning ifodasidir. Ular asrlar davomida xalqning ruhiy va ma‘naviy kechinmalarini, estetik dunyoqarashini mujassamlashtirgan. Har bir cholg‘u nafaqat badiiy vosita, balki madaniy arxetip, ruhiy energiya manbai va estetik qadriyat tizimi sifatida qadrlanadi. Shu bois milliy cholg‘ularni o‘rganish, ularni yosh avlodga yetkazish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish — milliy musiqa madaniyatini asrab-avaylashning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir.

“Biz yashab turgan hududimizda ishlatiladigan milliy musiqa cholg‘ularining turlari nihoyatda ko‘p. Agar ular nomma-nom sanab chiqilsa, 50 tadan ortiq ekanligining guvohi bo‘lish mumkin. Shular ichidagi 18 nomdagi musiqiy cholg‘u XX asrning 30-yillari oxiridan boshlab yangidan yaratilgan musiqiy cholg‘ular hisoblanadi va ular asosan orkestr va ko‘p ovozli ansambllarda foydalanish uchun mo‘ljallangan. Bu cholg‘ular muqaddam mavjud bo‘lgan milliy musiqa cholg‘ularining shaklini yiriklashtirish yoki kichikroq ko‘rinishga keltirish asosida yaratilgan bo‘lib, o‘sha cholg‘u oilasini yaratish ustida olib borilgan tajribalar natijasida yaratilgan. Takomillashtirilgan cholg‘ularda tajribalar olib borildi va chang, rubob, dutor, g‘ijjak, qo‘biz asboblarining oilasi yaratildi. O‘zbek xalq cholg‘ularing rekonstruksiya qilish va takomillashtirishdan maqsad, milliy ohanglarimizni ijro qilishda yanada keng imkoniyat hosil qilish va ularni Yevropa tovush qatori tizimiga o‘tkazish kabi vazifalar ustida ish olib borishgan. A.I.Petrosyans rahbarligi qo‘l ostida bir guruh ustalar: Usta Usmon Zufarov ko‘plab dutor va tanbur, g‘ijjaklarning turdosh oilalarini yaratgan bo‘lsa, Matyusuf Xarratov chang cholg‘usining yuqori registrini qo‘shimcha torlar va xarraklar hisobiga kengaytirdi. Yunus Rajabiy Usta Usmon Zufarov bilan hamkorlikda dutor bas, g‘ijjak bas, g‘ijjak alt na‘munalarini yaratdilar. Cholg‘ularning takomillashtirish natijasida, xalq cholg‘ularimiz diatonik tovushqatordan xromatik tovush qatorga o‘tkazildi. Bu kabi ijod na‘munalari cholg‘u ustalarining bevosita sozgarlik sohasida yetarlicha tajriba to‘plashganlari, asta sekinlik bilan an‘anaviy cholg‘ularning eski na‘munalari o‘rniga zamonaviy ijrochilikning yuksak talablariga to‘la mos kela oladigan yangi na‘munalarini yaratish, mavjud cholg‘ularni yanada takomillashtirishga urinish bo‘ldi.

Bugungi kunda ham yurtimizda bir qancha cholgʻu sozgarlari faoliyat olib borayotganligi, milliy musiqachilik sohasida bir qator yutuqlarga erishayotganimizni takidlash joizdir. Hususan, ana shunday oʻzining naʼmunaviy yutuqlari bilan milliy musiqa sanʼatimiz rivojiga katta hissa qoʻshib kelayotgan Andijonlik ustalar bir qancha cholgʻularni qayta tiklashga erishdi va yana yangi cholgʻularni yaratish ustida izlanishlar olib bormoqdalar. Bunga misol tariqasida sozgar usta Abdimalik Madraimov tomonidan Boburiylar davriga oid milliy musiqa cholgʻularidan gʻijjaki boburiy, qoʻshtor, dilrabo, dilnavo va shu kabi bir necha cholgʻularni qayta tiklashga erishilganligini takidlash joiz boʻladi. Milliy madaniyatimizda qoʻllaniladigan musiqa cholgʻularini foydalanish oʻrinlariga qarab shartli ravishda 2 guruhga - professional ijrochilikda qollaniladigan va folklor cholgʻulari turlariga ajratish mumkin. Professional ijrochilikda qoʻllaniladigan cholgʻularning oʻzi ham anʼanaviy musiqa ijrochiligida ishlatiladigan cholgʻular hamda akademik ijroda ishlatiladigan cholgʻular turlariga boʻlinib ketadi[39]. Anʼanaviy xalq cholgʻulari tarkibidan joy olgan cholgʻular qatoriga tanbur, dutor, sato, rubob, ud, nay, sunray, qoʻshnay, karnay, gʻijjak, chang, qonun, doyra, nogʻoralarni, folklor ijodiyotida qoʻllaniladigan sozlarga changqoʻbiz, sibizgʻa, choʻpon nay, spol nay, safoil, sagat kabilar kiradi. Qayta ishlangan cholgʻularga: rubob, gʻijjak, dutor, chang sozlarining musiqaning soprano, alt, tenor, bas ovozlari mezonlariga koʻra qayta ishlangan namunalar kiradi. Mazkur cholgʻular asosida oʻzbek xalq cholgʻu orkestr va ansambillarining faoliyati vujudga kelgan.

Hozirgi kunda ham Oʻzbek madaniyat va sanʼat dunyo xalqlarini oʻziga maftun etib kelmoqada. Respublikamizda oʻtkazilayotgan xalqaro festival, anjuman va bayram tantanalari esa xalqaro madaniy hamkorlikka yoʻl ochdi. Madaniyat sohasiga berilayotgan bu kabi imkoniyatlar biz yosh avlod vakillari ruhida shukronalik ruhini uygʻotmasdan qolmaydi va yaratilgan sharoit, eʼtibordan oqilona foydalanib, bunga javoban munosib yuksak yutuqlarga erishib, vatanimiz rivojiga oʻz hissamizni qoʻshishimiz kerakligini unutmasligimiz kerak.

Yangicha zamonda bu asboblarning milliy qadriyat sifatida yangicha talqin qilinmoqda, ularni oʻrganish, rivojlantirish va yosh avlodga yetkazish musiqa taʼlimining muhim yoʻnalishiga aylangan. Musiqa maktablarida oʻquvchilarga cholgʻu haqida asosiy tushunchalar, uning tarixi, tuzilishi va mashhur ijrochilari toʻgʻrisida maʼlumot beriladi. Oʻquv jarayonida toʻgʻri oʻtirish, ushlab holati va ijro texnikasini shakllantirishga alohida eʼtibor qaratiladi. Ritmni his qilish, eshitish va xotira qobiliyatlarini rivojlantirish orqali oʻquvchilarning musiqiy salohiyati oshiriladi. Bu jarayonda oʻqituvchining individual yondashuvi, metodik mahorati va musiqiy tafakkuri hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu tariqa, oʻzbek xalq cholgʻulari nafaqat milliy badiiy meros, balki inson ruhiyatini yuksaltiruvchi, estetik didni shakllantiruvchi va maʼnaviy tarbiyani mustahkamlovchi bebaho boylik sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 1.Abdullayev, M. History of Uzbek folk music. — Tashkent: Fan, 2008.
2. 2.Rajabiy, Y. Maqoms and their theoretical foundations. — Tashkent: Gafur Ghulom Publishing House, 1972.
3. 3.Komilov, N. Philosophy of music and thought. — Tashkent: Maʼnaviyat, 2012.
4. 4.Isʼhoqov, F. Uzbek folk instruments and performing traditions. — Tashkent: Uzbekistan
5. 5.National encyclopedia, 2015.
6. 6.Ochildiyev, A. Aesthetics and philosophy of oriental music. — Tashkent: Yangi asr avlod, 2010.

7. Yunusov, R. Foundations of music pedagogy. — Tashkent: O'qituvti, 2018.
8. Turgunov, B. The art of maqom: history, theory and practice. — Tashkent: Fan, 2016.
9. Saidov, H. Philosophical roots of musical heritage in Uzbek culture. — Tashkent: Ma'naviyat, 2020.